

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 125 (1724), 2026-yil 23-iyun, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



O‘ZBEKISTON VA OZARBAYJON O‘RTASIDAGI ALOQALAR YUKSAK DARAJAGA KO‘TARILMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 22-iyun kuni mamlakatimizdagi diplomatik missiyasini yakunlayotgan Ozarbayjon Respublikasining Favqulodda va muxtor elchisi Guseyn Guliyevni qabul qildi.



Davlatimiz rahbari Ozarbayjon elchisining samarali faoliyati hamda ikki mamlakat o‘rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini rivojlantirish va mustahkamlashga qo‘shgan shaxsiy hissasini alohida qayd etdi.

Oliy va boshqa darajalarda jadal muloqotlar yo‘lga qo‘yildi. Savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishda sezilarli natijalarga erishildi: so‘nggi yillarda o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi karrasiga oshdi, Ozarbayjon sarmoyasi ishtirokida 280 ta korxona tashkil etildi, Qo‘shma investitsiya kompaniyasi ta‘sis qilindi.

Ayni paytda geologiya, qishloq xo‘jaligi, transport, shaharsozlik, to‘qimachilik, farmatsevtika va boshqa tarmoqlardagi kooperatsiya loyihalari faol pallaga kirgan.

Madaniy-gumanitar almashinuv sohasida ham muhim dasturlar amalga oshirilmoqda.

Uchrashuv yakunida davlatimiz rahbari elchi Guseyn Guliyevga O‘zbekiston bilan Ozarbayjon o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlarni mustahkamlashga qo‘shgan katta hisssasi uchun “Mehnat shuhrati” ordenini topshirdi.

Elchi, o‘z navbatida, uning diplomatik missiyasiga berilgan yuksak baho hamda O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi keng ko‘lamli hamkorlik rivojini har tomonlama qo‘llab-quvvatlayotgani uchun mamlakatimiz yetakchisiga chuqur minnatdorlik bildirdi.

O‘zA

KASBIY TA‘LIMDA XUSUSIY SEKTOR ISHTIROKI KENGAYTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev xususiy kasbiy ta‘limni rivojlantirish chora-tadbirlari yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlari uchun zamonaviy kasb va ko‘nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlash, aholini mehnat bozori talablariga mos kasblarga o‘qitish bandlekni ta‘minlash va daromadlarni oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Shu bois, keyingi yillarda kasbiy ta‘lim tizimini isloh qilish, o‘quv dasturlarini ish beruvchilar ehtiyojiga moslashtirish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Taqdimotda kasbiy ta‘lim xizmatlarini ko‘rsatishda xususiy sektorning imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha yangi choralarni muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, kelgusi uch yilda xususiy sektor ulushini oshirish orqali xalqaro standartlar asosida ochilgan o‘quv va baholash markazlarining sonini hozirgi 50 tadan 200 taga yetkazish, xususiy kasbiy ta‘lim bilan har yili 500 ming nafar aholini qamrab olish maqsad qilingan. Ayni paytda bu ko‘rsatkich 45 ming nafarni tashkil etmoqda.

Davomi 2-betda

KAPITAL BOZORINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotni liberalashtirish, davlat ishtirokidagi korxonalarni transformatsiya qilish, xususiy lashtirish jarayonlarini jadallashtirish va investorlar uchun qulay muhit yaratish bo‘yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlarda kapital bozorini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘tgan oyda mamlakatimiz moliyaviy hayotida ulkan voqea ro‘y berdi. Ilk bor London va Toshkent fond borsalarida Milliy investitsiya jamg‘armasi aksiyalari birlamchi ommaviy joylashtirildi. Bu

iqtisodiyotimizning xorijiy sarmoya uchun ochiq va ishonchli maydonga aylanib borayotganini yana bir bor namoyon etdi.

Ta‘kidlanganidek, xalqaro investorlarning O‘zbekiston kapital bozoriga qiziqishi oshmoqda. Ayniqsa, Osiyo taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi nufuzli xalqaro moliyaviy institutlar o‘z obligatsiyalarini milliy valyutada mahalliy fond bozorida chiqarishga qiziqish bildirmoqda.

Davomi 2-betda

23-iyun – Davlat xizmati kuni

NATIJA UCHUN ISHLASH – DAVLAT XIZMATINING BOSH MEZONI

Bugungi globallashtirish, raqamlashuv va kuchayib borayotgan raqobat sharoitida davlatning muvaffaqiyati faqatgina uning iqtisodiy salohiyati yoki tabiiy resurslari emas, davlat boshqaruvi tizimi samaradorligiga ham bevosita bog‘liq. Davlat boshqaruvi markazida esa mamlakat taraqqiyotini ta‘minlovchi strategik mexanizm sifatida davlat xizmati instituti turadi.

Zamonaviy davlatchilik sharoitida fuqarolarning davlatga ishonchi ko‘p jihatdan davlat xizmatchilarining kasbiy mahorati, mas‘uliyati, halolligi va xalq manfaatlariga xizmat qilish darajasi bilan belgilanadi. Chunki aholi davlatning mohiyati va imkoniyatlarini ko‘proq qonunlar yoki rasmiy bayonotlar asosida emas, balki davlat xizmatchilari faoliyati orqali his etadi. Davlat xizmatchisi tomonidan ko‘rsatilgan har bir xizmat, qabul qilingan har bir qaror va muloqot

shakli davlatning jamiyat oldidagi nufuzini shakllantiradi.

Shu nuqtayi nazardan, davlat xizmati faqat ma‘muriy boshqaruv vositasi emas, davlatning strategik resursidir. Malakali, tashabbuskor va zamonaviy bilimlarga ega davlat xizmatchilari mavjud mamlakatlarda islohotlar tizimli kechadi, davlat institutlari samaradorligi ortadi hamda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik mustahkamlanadi.

Davomi 4-betda

MAHALLA TIZIMINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev mahallalar faoliyatini raqamlashtirish va Mahallani rivojlantirish milliy institutini tashkil etish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda joriy yil “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e‘lon qilingani munosabati bilan aholi bandligini ta‘minlash, kambag‘allikni qisqartirish, mahallalar infratuzilmasi va ijtimoiy muhitini yaxshilash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada yil yakuniga qadar 1 million aholini doimiy ish bilan ta‘minlash, 181 ming oilani kambag‘allikdan chiqarish, kambag‘allikdan xoli mahallalar sonini 2,5 barobar oshirib, 3,5 mingga yetkazish, ishsizlik va kambag‘allik darajasini 4,5 foizgacha tushirish maqsad qilingan.

Yil boshida infratuzilma, aholi turmush darajasi, biznes faollik va moliyaviy imkoniyatlari cheklangan 37 ta “og‘ir” tuman hamda 915 ta “og‘ir” mahalla bilan ishlash bo‘yicha yangi

tizim yaratilgan edi. Buning uchun barcha zarur mablag‘lar ajratildi.

Xususan, respublika budgetidan “og‘ir” tuman va mahallalarda infratuzilmani yaxshilash uchun 12 trillion so‘m yo‘naltirildi. Bunga qo‘shimcha ravishda har bir shunday tumanga 50 milliard so‘mdan, har bir mahallaga 2 milliard so‘mdan mablag‘ berildi. Viloyat hokimliklari tomonidan ham mazkur 37 ta tumaning har biriga 10 milliard so‘mdan, 915 ta mahallaning har biriga esa 1 milliard so‘mdan mablag‘ ajratildi.

Natijada tuman hokimliklari va mahalliy kengashlar “og‘ir” tuman va mahallalar uchun qo‘shimcha yana 4 trillion so‘m mablag‘ga ega bo‘ldi.

Davomi 2-betda

Buyuk o‘zbek yo‘li

ISLOHOTLARNING IKKINCHI DAVRI

Tarix voqealari davrlarga bo‘lib o‘rganilishi ma‘lum. Masalan, Amir Temur davri, milliy uyg‘onish davri, mustaqillik yillari... Bunda mamlakatdagi yangi tizim, o‘sinh va o‘zgarishlar hisobga olinadi. Bizningcha, tarixiy voqealarning ko‘pligi va shiddatiga qaraganda, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning Prezidentlik davrini ikki bosqichga bo‘lish mumkin. Birinchisi bu – avvalgi muammolarni hal qilish va inson qadrini ko‘tarish davri.

Prezidentimiz lavozimga kirishgan ilk yillarni eslaylik. Odamlarning oddiy hayot tarzi, yashashi, huquqlari bilan bog‘liq qancha muammolar yig‘ilib yotgandi. Bolalar mehnati, paxta safarbarligi, iqtisodiyot yopiqligi, biznesning qiyinligi, chegara muammolari, uy-joy yetishmasligi, xorijga chiqish, fuqarolik olish va propiska cheklavlari... Va hokazo.

Bularning qadrini tushunish uchun 3 ta voqeani eslashni o‘rinli deb o‘ylayman.

Birinchi voqea

2017-yil 21-sentabr, Nyu-York shahri. BMT Bosh Assambleyasi yig‘ilishiga borgan Shavkat Mirziyoyev ko‘plab manfaatli uchrashuvlar o‘tkazdi.

Lekin Jahon banki prezidenti Jim Yong Kim bilan uchrashuv juda asabiy kechdi. Sababi — O‘zbekistonda odamlarni majburiy mehnatga va bolalarni paxta terimiga jalb etish holatlari edi. Inson huquqlarini qadrlagan xalqaro tashkilotlar bu mezonga to‘g‘ri kelmaydigan davlatlar bilan hamkorlikni xushlamasdi.

Paxta o‘lkamizda XX asr boshlaridan buyon keng yetishtirilayotgan bo‘lsa, majburiy mehnat har doim bo‘lgan. Faqat Prezidentimiz Shavkat

Mirziyoyev davriga kelib, xalq kutgan qat‘iyat topildi — 100 yilda bo‘lmagan islohot bo‘ldi.

2017-yildan boshlab dalalarga bolalar mehnati va majburiy mehnatga chek qo‘yildi. Budget tashkilotlari xodimlari va talabalarni paxta terimiga chiqarish taqiqlandi. Paxtaga daxli bo‘lmaganlarning qo‘li bo‘shadi. Buni Xalqaro mehnat tashkiloti ham ko‘rib, kuzatib bordi.

Endi voqeaning davomini eshitish. Jahon bankining prezidenti 3 oy o‘tib, 2018-yil yanvarda yurtimizga vakillarini yubordi. Davlatimiz rahbari bilan uchrashishni taklif qilib, O‘zbekiston bilan sheriklikni kengaytirishga tayyor ekanini bildirdi.

Davomi 3-betda

MULOQOTDAN – AMALIY HAMKORLIKKA

V TOSHKENT XALQARO INVESTITSIYA FORUMIDA QIYMATI 43,1 MILLIARD DOLLARLIK LOYIHALAR IMZOLANDI

Kun mavzusi

O‘tgan hafta poytaxtimiz hayotida asosiy voqealikka aylangan beshinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi o‘z ishini muvaffaqiyatli yakunladi. Yirik iqtisodiy anjumaning 16-18-iyun kunlari bo‘lib o‘tgan asosiy tadbirlari nafaqat mintaqamiz, balki dunyo e‘tibori markazida turganiga guvoh bo‘ldik. Chunki ayni anjuman sabab jahon moliyasi ishtirokchilarining katta qismi — dunyoning 102 davlatidan 4 mingga yaqin xorijiy delegat, 76 nafar hukumat vakili, mashhur kompaniyalar rahbarlari, yirik investorlar, jami o‘n mingdan ziyod



ishtirokchi poytaxtimizda jam bo‘ldi. Xalqaro iqtisodiy forum jarayonlarini 41 davlatdan kelgan 200 dan ziyod jurnalist faol yoritib borgan ham tadbirning global maydondagi ahamiyatini namoyon etmoqda.

Davomi 2-betda

MUQADDAS SAFAR

Esse

Hayrat

Har xil safarlar bo‘ladi. Dunyo kezish, xizmat safari, ijodiy safarlar, oddiy sayr-u sayohatlar... Hammasi ham zarur, lekin bir safar borki, musulmon farzandi esini tanigandanoq unga borishni orzu qiladi, mablag‘ yig‘ib, tayyorlanadi...

Bu — muqaddas haj safari.

Bu ziyoratni ado etib kelish nasib etganlar o‘zini nihoyatda baxtiyor sezadi, tili shukrona aytishdan bo‘shamaydi. Shu

ma‘noda, navbatdagi safarimdan hali-hanuz hayratdaman. Nasib etganiga shukr qilaman. Bir guruh saodatmandlar qatorida “Prezident hojilari” safiga qo‘shilganimdan boshim osmonga yetdi! Bu yolg‘iz mening emas, hamsafarlarimning ham so‘zlari. Ular safida Vatanimizning hamma hududidan kelgan, halol mehnati, turmush tarzi, axloq-odobi bilan boshqalarga o‘mak bo‘lgan yurtdoshlarimiz bor edi.

Davomi 6-betda

KASBIY TA'LIMDA XUSUSIY SEKTOR ISHTIROKI KENGAYTIRILADI

Boshlanishi 1-betda

Buning uchun 300 dan ortiq o'quv dasturlari qayta ko'rib chiqilib, xalqaro talablarga moslashtiriladi. Kamida 1 ming nafar o'qituvchi va ta'lim ustalarining malakasi oshiriladi. Ushbu dasturlarni moliyalashtirish uchun Bandlik jamg'armasidan 500 milliard so'm yo'naltiriladi. Taqdimotda tadbirkorlar bilan o'tkazilgan uchrashuvlar davomida bildirilgan taklif va muammolar ham ko'rib chiqildi. Muloqotlarda tadbirkorlar tomonidan xususiy kasbiy ta'lim markazlari uchun bojxona boji va ijtimoiy soliq bo'yicha imtiyozlar, imtiyozli kreditlar, ayrim xarajatlarni kompensatsiya qilish, yangi qurilgan binolar uchun tashqi infratuzilmani budjet hisobidan barpo etish, yer uchastkalari qiymatini foizsiz bo'lib to'lash, bo'sh bino va

maydonlardan foydalanish imkoniyatlarini yaratish masalalari ko'tarilgan. Shu munosabat bilan xususiy kasbiy ta'lim tashkilotlari uchun zarur asbob-uskuna va jihozlarni bojxona bojidand ozod qilish, xorijiy o'qituvchilar, mutaxassis va ustalar uchun ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz etib belgilash taklif qilindi. Shuningdek, 2 yillik imtiyozli davr bilan 7 yilgacha imtiyozli kreditlar ajratiladi. Bino qurilishi va ta'miri, zarur uskunalarni xarid qilish uchun olingan kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarning 7 foizi qoplab beriladi. Xorijiy mutaxassislar va malakali o'qituvchilarni jalb qilish xarajatlarning 50 foizi kompensatsiya qilinadi. Kasbiy malakani baholash uskunolari va dasturiy mahsulotlar xarajatlarning 30 foizi, xorijda tan olinadigan va

milliy kasbiy malaka sertifikatlari xarajatlarning 50 foizi miqdorida kompensatsiya to'lanadi. Shu bilan birga, bunday imtiyoz va qo'llab-quvvatlash choralaridan foydalangan tadbirkorlar qurilgan yoki ijaraga olingan binolarning kamida 60 foizida kasbiy tayyorgarlikni tashkil etishi va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishi shart bo'ladi. Tadbirkorlarga sotilgan yer uchun to'lovni 5 yilgacha foizsiz bo'lib to'lash, bo'sh turgan davlat obyektlarini kamida 5 yilga ijaraga olish, texnikumlardagi bo'sh binolardan bepul foydalanish imkoniyati beriladi. Xususiy kasbiy ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish uchun yil yakunigacha ularni jihozlash dasturiga 100 million dollar jalb qilinadi. Bitiruvchilar loyihalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 5 million dollarlik "Venchur jamg'armasi" tashkil etiladi. Shu yildan boshlab

har yili "kasb vaucheri" dasturi uchun 20 milliard so'm ajratib boriladi. Taqdimotda xususiy kasbiy ta'lim tashkilotlari uyushmasini tashkil etish, uning faoliyatini moliyalashtirish hamda "Ko'nikmalar parki" ekotizimini yaratish rejalari ham ko'rib chiqildi. Soha muammolarini davlat idoralari bilan birgalikda tekzor hal qilish uchun doimiy ishlaydigan raqamli muloqot platformasini yo'lga qo'yish zarurligi ta'kidlandi. Prezidentimiz taqdim etilgan choralarni ma'qullab, xususiy kasbiy ta'limni rivojlantirish, o'quv dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, aholini talab yuqori bo'lgan kasblarga o'qitish va tadbirkorlar uchun yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanish yuzasidan mutasaddilarga aniq topshiriqlar berdi.

O'ZA

KAPITAL BOZORINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI BELGILANDI

Boshlanishi 1-betda

Buning uchun zamonaviy infratuzilma, xalqaro standartlarga mos huquqiy rejim, soliq imtiyozlari, eng muhimi, biznes yuritishning ishonchli va shaffof muhitini shakllantirish zarurligi qayd etildi. Shu bois, xalqaro moliya tashkilotlari bilan birgalikda yangi tahrirdagi "Kapital bozori to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqildi. 16 ta bob va 123 ta moddadan iborat ushbu hujjat kapital bozorini zamonaviy bozor normalari asosida tartibga solish, investorlar huquqini himoya qilish, bozor infratuzilmasini mustahkamlash va yangi moliyaviy vositalarni joriy etishga qaratilgan. Qonun loyihasida xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish nazarda tutilmoqda. Xususan, Xalqaro derivativlar va svoplar assotsiatsiyasi standartlariga muvofiq, mamlakatimizda opsiyon, svop, fyuchers va forvard kabi hosila moliyaviy vositalar, shuningdek, netting shartnomasi asosida bitimlar tuzish tizimi yo'lga qo'yiladi. Banklar tomonidan garov bilan qoplangan obligatsiyalar va ipoteka kreditlari majburiyatlari asosida maxsus obligatsiyalar chiqarishning huquqiy asoslari yaratilmoqda. Bu banklar uchun uzoq muddatli resurslarni jalb qilish, ipoteka bozorini rivojlantirish va aholi uchun moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qiladi. Islom moliyasi vositalarini joriy etishga ham alohida e'tibor qaratilgan. Yurtimizda ilk bor sherikchilik, ijar, savdo va agentlik sukuki kabi islom moliyasi turlarini o'z ichiga olgan "sukuk" qimmatli qog'ozlarini chiqarish shartlari belgilanmoqda. Taqdimotda qimmatli qog'ozlar bozori infratuzilmasini takomillashtirish

masalalari ham ko'rib chiqildi. Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariyining vakolatlari kengaytirilib, unga dividendlarni markazlashgan holda to'lash, xorijiy banklarda vakillik hisobvараqlari ochish huquqi berilmoqda. Shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan mijozlarning qimmatli qog'ozlarini saqlash, hisobini yuritish va ular bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha professional xizmatlar joriy etiladi. Chet ellik nominal saqlovchilar uchun mahalliy bozorga kirish tartibini soddalashtirish orqali xorijiy institutsional investorlarni jalb qilish imkoniyatlari kengayadi. Regulyator vakolatlarini xalqaro talablar va standartlarga muvofiqlashtirish ham nazarda tutilmoqda. Bu bozor ishtirokchilari faoliyatini samarali nazorat qilish, axborot oshkoraliqini ta'minlash, qonunchilik buzilish holatlariga tekzor munosabat bildirish va investorlar huquqini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi.

Milliy korxonalarni aksiyalarini xalqaro moliya bozorlariga joylashtirish va investorlarning aktivlarini ishonchli himoya qilish maqsadida 10 dan ziyod qonun va kodekslarga o'zgartirishlar kiritilmoqda. Prezidentimiz kapital bozori iqtisodiyotga uzoq muddatli resurslarni jalb qilish, korxonalarni transformatsiya qilish va xususiy investitsiyalar oqimini kengaytirishda muhim manba ekanini ta'kidladi. Mutasaddilarga yangi tahrirdagi "Kapital bozori to'g'risida"gi qonun loyihasini xalqaro hamkorlar bilan muhokama qilish, bozor infratuzilmasini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, yangi moliyaviy vositalarni joriy etish va soha uchun kadrlar tayyorlash yuzasidan topshiriqlar berildi.

O'ZA

Boshlanishi 1-betda

Ko'pchilik xalqaro anjuman yuqori saviyada tashkil etilgani, bu yili ishtirokchilar soni va nufuzi ancha baland ekan, forum qatnashchilari 80 ga yaqin tadbirda ishtirok etgani haqida gapirayotgan bo'lsa, boshqalar ayni anjumanda imzolananadigan yangi loyihalar, investitsion kelishuvlar hajmi bilan qiziqmoqda. Chunki forum sabab yurtimizda ozmuncha investor kelmadi — ishtirokchi kompaniyalar boshqaruvidagi aktivlarning umumiy hajmi qariyb 42 trillion dollarga baholangan. Qolaversa, bu yilgi yubiley sanada imzolananadigan kelishuvlar ham rekord darajaga yetishi taxmin qilingandi.

Shunga yarascha forumdan kutilmalar ancha yuqori edi. Raqamlar esa buni amalda ifoda eta oldi. Uch kun davom etgan o'zaro muloqotlar, biznes uchrashuvlar, aniq loyiha va tashabbuslar, investorlarning yuqori qiziqishi aniq amaliy yechimlarga aylandi. Natijada V Toshkent xalqaro investitsiya forumi yakunida umumiy qiymati 43,1 milliard dollarlik 166 ta investitsiya shartnomasi imzolandi.

— Bu raqamlar shunchaki uch kunlik ishbilarmonlik dasturining yakuni emas, — deydi O'zbekiston investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri Laziz Qudratov. — Ular yanada muhimroq tendensiyani aks ettiradi. Ya'ni O'zbekistonga xalqaro qiziqish aniq investitsion qarorlar, yirik tarmoq loyihalari, uzoq muddatli hamkorlikka aylanib bormoqda. Yurtimizning investitsiyaviy jozibadorligi oshib, xorijlik ishbilarmonlarni chorlayotgani forumning bu yilgi tadbirlarida yaqqolroq ko'rindi. Ishtirokchilar sonidan tortib, erishilgan kelishuvlarga raqamlar bir necha barobar oshib, barcha rekordlar yangilanganiga guvoh bo'ldik. Bu mazkur forum O'zbekistondagi investitsion imkoniyatlarini namoyish etadigan maydondan yirik xalqaro ishbilarmonlik platformasiga aylanganini ko'rsatadi. Bugun xorijlik investorlar ana shu platformada loyihalar bilan tanishib, uzoq muddatli hamkorlik shartnomalarini imzolashga intilyapti.

Odatda ishbilarmonlar biror loyihaga shunchaki sarmoya kiritmaydi. Investorni, avvalo, xavfsizlik muhiti, qulay sharoit, iqtisodiy imkoniyatlar, qolaversa, ishtiobolli loyiha qiziqitiradi. Toshkent xalqaro investitsiya forumi esa ularga ana shularni taklif qilaypti. Chet ellik mehmonlar O'zbekistonning investitsion salohiyati bilan tanishishi, hamkorlik kelishuvlari uchun o'zaro muloqot maydonini yaratib bormoqda. Ushbu platformaning o'zidayoq qator loyihalar imzolani, kelishuvlarga erishilayotgani boisi shunda.

Yangi xalqaro aeroport: investor kim?

Yaqin yillarda Toshkent shahrida Germaniyaning mashhur Volkswagen avtomobillarini yirik uzelli yig'ish boshlanadi. Ushbu yirik loyihaga V Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida start berildi.

MULOQOTDAN — AMALIY HAMKORLIKKA V TOSHKENT XALQARO INVESTITSIYA FORUMIDA QIYMATI 43,1 MILLIARD DOLLARLIK LOYIHALAR IMZOLANDI

Kelishuv O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamda Germaniya Prezidenti Frank-Valter Shтайnmayer huzurida imzolandi. Loyihalar orasida Andijon viloyatida logistika markazini barpo etish, suyuq maishiy yuvish vositalari ishlab chiqarish, temir yo'l sohasi uchun mutaxassislar tayyorlash hamda zamonaviy imtihon markazlarini ochish kabilar ham bor. Mazkur tashabbuslar ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy sheriklikni yanada mustahkamlash barobarida hududlarda sanoat kooperatsiyasini kengaytirish, infratuzilmani rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratishga xizmat qiladi.

Loyihalarning aksariyati xususiy soha vakillari bilan amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin. Chunki bugun jahon amaliyotida xususiy biznes mamlakatlar iqtisodiyotining muhim tayanchiga aylangan. Ularning davlat bilan hamkorligi esa sohalar rivojini tezlashtiryapti.

Toshkentdagi investitsiya forumida imzolangan yirik shartnomalarning biri ham davlat va xususiy sektor hamkorligida amalga oshiriladi. Gap Yangi Toshkent xalqaro aeroportini qurish va uni ekspluatatsiya qilish bo'yicha erishilgan kelishuv haqida boryapti. Davlat-xususiy sheriklik shartnomasi "Uzbekistan Airports" AJ hamda Saudiya Arabistonining "Vision International Investment" kompaniyasi o'rtasida tuzildi. Mazkur shartnomaga muvofiq, yangi aeroport 35 yil muddatga davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari asosida tashqi boshqaruvga berilib, loyiha Saudiya Arabistoni, Yaponiya va Koreya Respublikasining yetakchi kompaniyalari bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, yangi aeroport majmuasi 2026-2030-yillar davomida Toshkent



O'zbekistonda 2030-yilgacha elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 40 foizdan oshirish bo'yicha aniq rejarlar belgilangan.

viloyatining O'rta Chirchiq va Quyi Chirchiq tumanlari hududidagi 1310 gektar maydonda barpo etilib, loyiha doirasida dastlabki bosqichda qariyb 3 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilinishi rejalashtirilgan. Loyiha doirasida amaldagi aeroport terminalidan 4 barobar katta bo'lgan yangi zamonaviy yo'lovchi terminali qad rostlaydi hamda dastlabki bosqichda yiliga 20 million yo'lovchiga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi, istiqbolida esa ushbu ko'rsatkich 46 millionga yetadi. Yo'lovchilar oqimini tez va qulay yaratadi. Yo'lovchilar maqsadida jami 40 dan ortiq teleskopik trap hamda 160 dan ortiq havo kemasi turargohi tashkil etilishi ko'zlangan.

Xalqaro forum nafaqat dunyoning turli nuqtasidagi ana shunday yirik

sarmoyadorlarni, balki ularning g'oyalari, taklif va tashabbuslarini ham birlashtiradi. Anjumanning har bir kunida muayyan yo'nalishdagi biznes tadbirlar, muloqot va sessiyalardan tashqari Milliy ko'rgazma, o'nga yaqin davlat ishbilarmonlari bilan alohida biznes-forumlar tashkil etilgani aniq takliflarni ilgari surib, investitsiyaviy kelishuvlarga erishishda ayni muddao bo'ldi.

Forum doirasidagi shunday biznes uchrashuvlarining birida O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasida muhim hamkorlik hujjatlari imzolandi. Ozarbayjonning "AzerGold" kompaniyasi bilan geologik qidiruv va tog'-kon sanoatini rivojlantirish, "NEQSOL Holding" bilan mineral resurslarni o'zlashtirish va investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish bo'yicha erishilgan kelishuvlar shular jumlasidan. Janubiy Koreyaning "ROBOTIS" kompaniyasi bilan imzolangan bitim ko'lami ham ancha katta. Zamonaviy loyiha doirasida poytaxtimizdagi "Yangi avlod" maxsus sanoat zonasida gumanoid robotlar hamda ularning butlovchi qismlarini ishlab chiqaradigan zavod qurilishiga start berildi.

— Kompaniyamiz robototexnika sohasida jahondagi yetakchilardan biri, — deydi "ROBOTIS" prezidenti Kim Byong Su. — Kompaniyanning umumiy aktivlari hajmi 2,5 milliard dollar bo'lib, texnologiyalarimizdan Amazon, Microsoft, Apple, NASA, Google, Samsung, BMW kabi jahonga mashhur gigantlar keng foydalanib kelmogda. Ushbu strategik loyiha va o'zaro hamkorlik O'zbekiston sanoatini yuqori texnologiyalar bosqichiga olib chiqishga ishonamiz. Loyiha doirasida

mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratilishi, ilg'or xalqaro tajriba transfer qilinishi kutilyapti. Bu mamlakatning Markaziy Osiyoda robototexnika bo'yicha yetakchi markazga aylanishida ham mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Bu yakuniy raqamlar emas

V Toshkent xalqaro forumining bu yilgi dasturlari shu kabi kelishuvlarga boy bo'ldi. Forumning uch kunlik tadbirlaridan birinchi xorijlik mehmonlar odatdagidek mamlakatimiz hududlari investitsion imkoniyatlari bilan tanishib, qator sanoat korxonalari bo'ldi. Turli sohalar kesimida uchrashuvlar tashkil etilib, yangi bitimlar imzolandi.

"O'zbekgidroenergo" AJ korxonasi uchun forum amaliy natijalarga boy bo'lgani aytilmoqda. Qator davlatlar investorlari ushbu yo'nalishdagi loyihalarga sarmoya kiritadigan bo'ldi. Jumladan, AQSHning "77 Construction USA Corp." kompaniyasi bilan Pskom GES loyihasida ishtirok etish bo'yicha kelishuvga erishilgan bo'lsa, Jahon banki guruhi Hojikent GES loyihasini rivojlantirish bo'yicha yangi hamkorlardan biriga aylandi.

Qolaversa, Xorvatiyaning "Koncar" hamda "In Foro Viridi" kompaniyalari bilan kichik va o'rta gidroelektr stansiyalari loyihalarini amalga oshirish, Afg'oniston tomoni bilan gidroenergetika uskunalarini yetkazib berish va loyihalash sohalarida hamkorlikni rivojlantirish yuzasidan kelishuvlarga erishildi.

Xorijlik investorlarni iqtisodiy sohalar, qishloq xo'jaligi, sanoat tarmoqlari,

raqamlashtirish, sun'iy intellekt kabi zamonaviy yo'nalishlardagi loyihalar ko'proq qiziqitrayotganini ko'rish mumkin. Ayniqsa, "yashil" energetika asrimizning eng rivojlanayotgan sohalaridan biri bo'lmoqda. O'zbekiston esa oxirgi yillarda bu borada inqilobiy natijalarga erishib, Markaziy Osiyodagi yetakchilardan biriga aylanganini dunyo davlatlari e'tirof etmoqda. Yirik investorlarni yurtimizga chorlayotgan sabab ham shu, ayni yo'nalishga dunyoning gigant kompaniyalari sarmoya kiritmoqda. Hatto mamlakatimizda investitsion loyihalar haqida gap borganida, birinchi navbatda, ko'z oldimizga energetika tarmog'i kelyapti.

— O'zbekistonda 2030-yilgacha elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 40 foizdan oshirish bo'yicha aniq rejarlar belgilangan, — deydi "O'zbekgidroenergo" AJ boshqaruvni raisining birinchi o'rinbosari Azimjon Ahmadjonov. — Bu maqsadga erishish uchun tizimli, jadal harakatlar qilinyoytir. Ayni jarayonlarda esa xorijiy investitsiya hajmi tobora oshib borayotgani, chet elliklarning sohaga qiziqishi yuqori ekan alohida ahamiyatga ega. Xususan, V Toshkent xalqaro investitsiya forumida energetika sohasida faoliyat yuritayotgan 50 dan ortiq xorijiy kompaniya va investor ishtirok etdi.

Gidroenergetika qayta tiklanuvchi energiya manbalari orasida eng barqaror va ekologik toza yo'nalishlardan biri. Bugun mavjud gidroenergetika quvvatlarini modernizatsiyalash, yangi gidroelektr stansiyalari barpo etish hamda energiyani samarali saqlash imkonini beruvchi gidroakkumulyatsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar qilinmoqda. Forum doirasidagi muloqotlar, ilgari surilgan loyihalar amaliy natijalarga aylangan quvonarli. Imzolangan kelishuvlar turli hududlarda amalga oshirilishi va barqaror hamda ekologik toza energetika tizimini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Har yili Toshkent xalqaro investitsiya forumida yurtimiz hududlaridan vakillar faol ishtirok etib, yangi loyihalarni taklif qilishi boisi shunda. Bu gal ham uch kun davom etgan forumning poytaxtimizdagi CAEX ko'rgazmalar maydonida tashkil etilgan tadbirlarida har bir viloyat uchun alohida burchak ajratilib, zamonaviy standlar yordamida maxsus taqdimotlar qilindi. Bu ham investorlarda katta qiziqish uyg'otganiga guvoh bo'ldik. Bo'limlarga ajratilgan taqdimot maydonlarida hududlar hokimlari boshchiligidagi tadbirkorlar qatnashib, xorijlik ishbilarmonlar bilan bevosita muloqotlar, alohida sessiyalar tashkil etilgani ham amaliy natijalar ko'lamin oshirdi.

Forum doirasida imzolangan bitimlarning ko'pi mamlakatimizning turli hududlarida amalga oshiriladi. Ko'rsatilgan raqamlar aniq erishilgan kelishuvlar hajmini anglatadi. Ammo muhokama jarayonida bo'lgan loyihalar ham talaygina. Ular bo'yicha yil davomida muzokaralar qilinib, ana o'nlab shartnomalar imzolaniishi ko'zda tutilgan.

Iroda TOSHMATOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Anvar SAMADOV,
jurnalist

Boshlanishi 1-betda

O'sha yili may oyida Prezidentimizning Amerika Qo'shma Shtatlariga rasmiy tashrifi chog'ida ikkinchi uchrashuv bo'lib o'tdi. Bu safar munosabat tamomila boshqacha! Davlatimiz rahbarini Jahon banki prezidentining o'zi ochiq yuz bilan kutib oldi. "Men O'zbekistonda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning sur'ati, miqyosi va ko'lamidan chuqur hayratdaman", dedi u.

Bu Prezidentimizning qat'iyyati va shijoatiga tan berish edi. Ayonki, buning ortida qanday hurmat, hurmatning zamirida esa katta mehnat-mashaqqat bor!

Albatta, bu bilan paxtachilik zarar ko'rgani yo'q. Iqtisodiyot uchun u ham kerak. Faqat bozor tamoyillari va manfaatdorlik to'g'ri yo'lga qo'yildi. Endi paxtani bolalar emas, "manfaat" teryapti.

Paxta bir asr davomida elimizning asosiy tashvishi bo'lib keldi. Bu odamlarning turmush tarziga, hatto ongiga singib ketgandi. Qishloq bolalari kuzda oylab paxtaga chiqib, bir yilda 6 oy o'qirdi. Lekin xalqimizning "kosasi oqarmadi". Qaytaga zahmat, kasallik, isnod keltirdi.

Paxtamizning o'zi oq, nomi qora edi. Shu tufayli ham "Cotton Campaign" xalqaro koalitsiyasi O'zbekiston paxtasiga boykot e'lon qilgandi. Yuqoridagidek ijobiy o'zgarishlar va



davlatimizga ishonch ta'sirida 2022-yilga kelib, bu "tavqi la'nat" bekor qilindi.

Qolaversa, mamlakatimiz GSP+ imtiyozlar tizimiga a'zo bo'ldi. Bu orqali 6200 turdagi mahsulotlarni Yevropa bozorlariga bojsiz eksport qilish imkoniyati yaratildi. "ZARA", "Collins", "LC Waikiki", "De Facto", "Piere Cardin", "Baldessarini", "Digel", "Carl Gross" kabi mashhur kompaniyalar bilan hamkorlikka yo'l ochildi.

Ilgari paxtamizni xomashyo holida sotolmay yurgan bo'lsak, endi tayyor mahsulot qilib sotaymiz. Ham odamlarga ish o'mi, ham qo'shilgan qiymat yaratilyapti. Mana, birgina islohotning xalq hayotidagi o'mi!

Ikkinchi voqea

2017-yil 5-sentabr. Shu kuni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev davlat tashrifi bilan Qirg'izistonga boradi. Salom-alikdan so'ng Qirg'iziston Prezidenti birinchi bo'lib O'zbekistondagi vaziyatni so'raydi.

Gap shundaki, bundan bir-ikki kun oldin davlatimiz rahbarining valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha farmoni e'lon qilingan edi. Unga ko'ra, 2017-yil 5-sentabrdan boshlab, O'zbekistonda chet el valyutasini sotish va sotib olish erkinlashtirildi.

O'shanda ko'pchilik bu revolyutsion qadamdan xavotirga tushgani rost. Endi O'zbekistonda narxlar osmonga chiqib ketadi, xaos boshlanadi deb o'yaganlar ham bo'ldi.

Lekin unday bo'lmadi. Vaziyat har tomonlama tahlil qilingani, ham tadbirkorlar, ham moliyachilar fikri o'rganilgani, xalqaro ekspertlarning maslahatlari olinib, puxta tayyorgarlik ko'rilgani natijasida konvertatsiyaga o'tish ravon kecdi.

Hozirgi yoshlar bilmasligi mumkin. Ilgari yurtimizda xorijiy valyuta sotib olish cheklangandi. Oqibatda rasmiy va bozor kursi paydo bo'lib, orasidagi farq ikki barobar edi.

Investorlar ham aniq emas. Bunday sharoitdagi joyga pul tikkisi kelarmidi? Investitsiya kiritmay, foydasini olish ming daxmaza edi. Yoki mahsulotini eksport qilgan tadbirkor topgan xorijiy valyutasini o'zi uchun ziyonli bo'lgan rasmiy kurs bo'yicha sotardi.

Shuning uchun investitsiya ham, eksport ham sust edi. Masalan, 2016-yilda sarmoyalar hajmi 15 milliard dollar nari-berisida bo'lgan. Oqibatda iqtisodiy rivojlanish sekinlashgan, ijtimoiy infrazuzilimga esa aytarli pul yetib bormasdi.

2017-yilda so'mning erkin konvertatsiyasi ochilgani biznes rivojiga juda katta turtki berdi. Bu savdo, ishlab chiqarish, eksport, umuman, iqtisodiyot erkinlashdi degani. O'zbekistonga katta-katta kompaniyalar kela boshladi. Turli majmualar qurilib, odamlar ishli bo'ldi.

So'nggi yillarda yurtimizga 150 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiya kiritilibdi. Endi o'ylang, 15 milliard qayoqda-yu, 150 milliard qayoqda? Ya'ni 10 yilda 10 barobar o'sish!

Biz hali faqat chet el investitsiyasini aytaymiz. Hozir o'zimizning tadbirkorlar ham katta-kichik investorlarga aylandi. Turli sohalarga yo'naltirilgan jami pulni ko'rsak, 230 milliard dollardan oshib ketadi.

Bu nimadan? Iqtisodiyotga ishonchdan!

Bu nimadan? Erkinlik borligidan! Shunday sharoitlar natijasida minglab kichik korxonalar katta shirkatlarga aylandi. Boshqalarni o'z ortidan ergashtiradigan

"champion tadbirkorlar" degan ibora paydo bo'ldi. Ularning hisob raqamlarida million-million dollar bor. Xohlasa so'mda, xohlasa xorijiy valyutada biznes qilyapti. Avvalgiday taqiqlar va ta'qiblar yo'q. Ishbilarmonlarimiz dunyoga chiqib, global qo'shilgan qiymat zanjirida faol qatnashyapti.

Eslasangiz, oldinlari chet ellar bilan muzokarlarda O'zbekiston delegatsiyasida faqat davlat mulozimlari bo'lardi. Hozir ko'pi ishilarmonlar. Prezidentimizning xorijga safarlari chog'ida har doim biznes-forumlar o'tkazilyapti. Bu — yurtimizda tadbirkorlar sinfi yetakchi o'ringa chiqayotganidan dalolat.

Bunday o'zgarishlar odamlar hayotida aks etmay qolmaydi, albatta. Ochilgan korxonada baribir kimdir ishlaydi. Mahsulotni birov sotadi, sotib oladi. Ularga xizmat ko'rsatishda yana qancha odam daromad topadi. Xullas, g'ildirak yurib ketdi.

Masalan, hozir xususiy sektorda o'rtacha oylik 4-5 million so'm. Uyiga daromad kirgan odamning kayfiyati ko'tarinki bo'ladi, o'ziga, sog'lig'iga qaraydi, farzandlarini yaxshi o'qitadi. Butun jamiyatda shunday muhit bo'lsa, mamlakat ilgirilib boraveradi.

Uchinchi voqea

Shavkat Mirziyoyev xalq ichidan chiqqan, hayotning past-u balandini ko'rgan inson. Yoshligida ko'p qiyinchiliklarni boshdan o'tkazan. Oila qurgach, ijarada yashagan, "propiska" degan g'alvalarga duch kelgan.

Keyinchalik viloyat hokimi, Bosh vazir bo'lib ishlaganida ham doim pastda yurib, xalqning dardini yaxshi bilardi.

O'sha paytda eng katta muammo uy-joy yetishmasligi edi. Misol uchun, 1991-yilda O'zbekiston aholisi 20 million kishi bo'lgan, 2016-yilda esa 32 millionga yetgan. Lekin uylar-chi? Shunga yarasha uyalar qurildimi?



“Davlatimiz rahbarining “inson qadri uchun” g’oyasidan o’sib chiqqan “inson — jamiyat — davlat» degan yondashuv Konstitutsiyamizning mazmuniga chuqur singgan. “O’zbekiston — 2030” strategiyasi ham “har bir insonga o’z salohiyatini ro’yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish” bobi bilan boshlanadi.



Shuncha aholi, yosh oilalar qayerga ko'chib chiqdi?

Vaqt o'tgani sayin bu muammo kattalashib bordi. Bir hovlida to'rt-besh kelin siqilib yashayotgan oilalar ham bor edi.

Aslida, farovon yashashning birlamchi sharti — uy-joy, boshpana. Shuning uchun Prezidentimiz bu masalaga birinchi navbatda e'tibor qaratdi. Uning davlat rahbari sifatidagi ilk qoralaridan ikkitasi qishloq va shaharlarda arzon uy-joylar qurish to'g'risida bo'ldi. Birinchisi 2016-yil oktabrda, ikkinchisi noyabrda qabul qilingan edi.

"Mening eng katta niyatim shuki, Vatanimiz ichra har bir inson o'zining "kichik vatani"ga — uy-joyiga ega bo'lsa, bizdan xalqimiz ham, Yaratgan ham rozi bo'ladi", degan edi Shavkat Mirziyoyev o'sha vaqtlarda.

Shunday bo'lyapti ham. 2017-2025-yillarda yurtimizda 620 mingdan ziyod xonadon

qurilibdi. Bu yil yana 140 ming xonadonli uylar barpo etish rejalashtirilgan. Ilgari hech qachon bunday katta qurilish bo'lmagan.

Endi o'zingiz o'ylang: oxirgi 10 yilda uy-joylar sanog'i 800 mingtaga boryapti. Agar oilalar o'rtacha 4-5 jon deb olsak, 4 million odamning hayoti o'zgarayapti. Bog'cha, maktab, poliklinika, sport maydoni, ish joyi va eng yaxshi xizmatlar yonida bo'ladi. Prezidentimiz maqsad qilganidek, hayotdan rozi bo'lib yashaydi.

Bunday ishlar davom etyapti. Xususiy kompaniyalar qurayotgan turar joylardan tashqari "Yangi O'zbekiston" massivlari degan harakat paydo bo'ldi. Qoraqalpog'iston va viloyatlarda 56 ta shunday zamonaviy mavze qad rostladi. Kelgusi besh yilda ularning soni 100 taga yetadi.

Yana bir jihati, sharoiti og'ir oilalarga uy-joyning boshlang'ich badali davlat byudjeti hisobidan to'lab berilyapti. Ya'ni mablag'i yo'q odam ham salgina harakat qilsa, yangi uy olyapti, asta-sekin oyoqqa turib ketyapti.

Inson qadri yana tenglik, erkinlik ham degani. Lekin uzoq yillar yurtimizda fuqarolik va "propiska" bilan bog'liq ko'p chekllovlar bor edi. Toshkent shahrida doimiy ro'yxatga o'tish azob edi. Oramizda yigirma yillab yashab, bolalari ulg'ayib, lekin teng huquqli fuqaro bo'lmaganlar qancha?! Ular xuddi aybdorday, o'z yurtida begonaday edi.

Bu ishi tushaganlarga bilinmasligi mumkin. Ishi tushganlar hozirgi erkinlik nafasini juda teran sezadi. Bugun ularning yelkasidan tog' ag'darilgan. Ilgari qisilib, qimtib yurgan bo'lsa, endi hamma bilan teng, erkin yashayapti. Bemalol uylar olyapti, davlat xizmatlarida ishlayapti, saylovlarda qatnashyapti.

Axir shu emasi, inson huquqlari! Shu emasi, islohotlarning odamlar hayotiga ta'siri!

Bular oxirgi yillardagi real islohotlardan ayrimlari, xolos. Bunday xayrli ishlar juda ko'p.

Maqola boshida qayd etganimizdek, ilk islohotlar muammolarni hal qilishga qaratildi, aholining birlamchi ehtiyojlarini yuzaga chiqardi, rivojlanishga zamin yaratdi.

Endi O'zbekiston islohotlarning ikkinchi davriga qadam qo'ydi. Bu — yaratilgan sharoitlarga tayanib, natijadorlikni oshirish, strategik rivojlanish davri.

Bizningcha, bu bosqichning ikkita muhim huquqiy asosi bor. Birinchisi, yangi tahrirdagi Konstitutsiya bo'lsa, ikkinchisi, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi. Bosh qonunimizda davlatchiligimiz asoslari va taraqqiyot yo'li, strategiyada esa kelgusi reja va maqsadlari mujassamlashgan. Xuddiki biri mustahkam poydevor bo'lsa, ikkinchisi unda quriladigan ulkan imorat.

Masalan, davlatimiz rahbarining "inson qadri uchun" g'oyasidan o'sib chiqqan "inson — jamiyat — davlat" degan yondashuv Konstitutsiyamizning mazmuniga chuqur singgan. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi ham "har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish" bobi bilan boshlanadi.

Prezidentimiz faoliyatining ilk kunlaridanoq "xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan talabni qo'ygan edi. Strategiyada belgilangan "xalq xizmatidagi davlat boshqaruvin tashkil etish" vazifalari ana shu siyosiy kursning izchil davomidir.

Bunday parallellarni ko'plab keltirish mumkin. Sirasini aytganda, yurtimizdagi islohotlar bilan rejalar uzviy, bir-birini to'ldiradi. Jumladan, milliy strategiyamiz ham zamon talabi va aholi kutilmalariga asoslangan. Ta'bir joiz bo'lsa, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi xalq bilan davlat o'rtasidagi murosa, burch va mas'uliyatdir.

Shu paytgacha qilingan ishlar marrani baland olish imkonini beryapti. Ularning ro'yobini, umuman, mamlakat kelajagini bilimli kadrlar hal qiladi. Davlatimiz rahbari asos solgan Prezident maktablari, al-Xorazmiy va al-Beruniy maktablari, zamonaviy universitetlarda ana shunday yangi avlod tarbiyalanmoqda. "Prezident iqtidorli farzandlari" tashabbusi, "Bir million dasturchi" va "Besh million sun'iy intellekt yetakchilari" loyihalari yoshlarni zamonaviy kasblarga yo'naltirmoqda.

Bilimning qadrlanishi butun mamlakatda o'qish-o'rganish to'liqini paydo qildi. Hozir rahbarlardan tortib, oddiy ishchigacha — hamma ota-ona farzandini yaxshi o'qitish harakatida. Xudo xohlasa, yaqin yillarda bu avlod hayotga kirib kelib, jamiyatimizni ko'taradi, Uchinchi Renessansga poydevor bo'ladi.

Yana, xalqning yuksalishi uchun milliy g'urur va ko'tarinki ruh ham kerak. Islom sivilizatsiyasi markazi hamda Imom Buxoriy majmuasida ana shunday ulam iftixor manbasini ko'ramiz. Bunday ulug' meroslar o'zbek xalqining salohiyatini yuqol mayomon etadi, yosh avlodda g'urur va o'ziga ishonch uyg'otadi.

Qaysi sohada bo'lmasin, hamma islohot va harakatlarning bir umumiy jihati bor.

Bu — xalqchilik, xalq manfaat. Barcha strategik maqsadlar aholi fikri va ehtiyojlarining ifodasi. Shunday ekan, ularning hayotga ko'chishi hammaiz uchun kerak. Bu jamiyatdan jipslik va islohotlarga daxldorlikni talab qiladi. Eng muhimi, yo'limiz to'g'ri, marralar aniq, qadamlar esa dadil.

me'yorlariga mos bo'lishi kerakligini chuqur anglaydi. Umuman olganda, yig'ilishda ilgari surilgan strategik tashabbuslarning soha va hayotga keng tatbiq etilishi davlatimiz rahbarining "Sudlarda komplyens nazorat tizimi samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilinishi bilan mustahkam huquqiy asosga ega bo'ldi.

Mazkur hujjat sud tizimida korruptsiyaga qarshi kurashish, inson omilini bartaraf etish va kadrlar siyosatini tubdan sog'lomlashtirishga qaratilgan yangilanishlarni tizimli ravishda hayotga joriy etish mexanizmini belgilab berdi. Endi komplyens nazorati kuchaytirilishi, kadrlarni tanlashda meritokratiya tamoyillari va zamonaviy raqamli tizimlarning izchil qo'llanishi sud apparati xodimlarining xizmat mas'uliyatini tubdan oshiradi. Zero, farmonda belgilangan vazifalarning sohada to'liq ijro etilishi aholining sud himoyasiga va odil sudlovga ishonchini yanada yuksaltirishning muhim kafolatidir. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, sud tizimida shaffoflik, halollik va adolat muhitini mustahkamlash fuqarolarning davlatga hamda qonun ustuvorligiga hurmatini shakllantiradigan asosiy omil. Yangi huquqiy asoslar negizida amaliyotga tatbiq etilayotgan bunday tizimli chora-tadbirlar mamlakatimizda sud hokimiyatining chinakam mustaqilligi, ochiqligi va sofligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Munosabat



Nilufarxon SAIDG'OZIYEVA,
Konstitutsiyaviy sud devoni
rahbari, yuridik fanlar doktori

Biz, sud tizimi xodimlari har kuni xizmat vazifamizga kirishar ekanmiz, sud fuqarolari davlat idorasi emas, balki shunchalarning huquqi va manfaatlarini himoya qiluvchi, adolatni ta'minlovchi oliy maskan ekanini chuqur his qilamiz. Zero, faoliyatimizdagi kichik kamchilik ham nafaqat bir insonning taqdiri, balki butun jamiyatning davlat va qonun ustuvorligiga bo'lgan ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Prezidentimiz raisligida sudlarda komplyens nazorat tizimi samaradorligini oshirishga bag'ishlab o'tkazilgan taqdimotda ilgari surilgan tashabbuslar odil sudlovda poklik va halollikni ta'minlashning tom ma'nodagi huquqiy kafolati bo'ldi.

Mamlakatimizda sud-huquq sohasini tubdan yangilash, uni chinakam mustaqil va xalqchil tizimga aylantirish bo'yicha izchil qadamlar tashlanmoqda. Biroq sudyalarning qonunlarni mukammal bilishi to'laqonli adolatni ta'minlash uchun yetarli emas. Sababi, sud protsessi yaxlit zanjir, unda nafaqat sudyalor, balki hujjatlarini tayyorlash va ijro etish jarayonida qatnashadigan qariyb 4800 sud apparati xodimining ham mas'uliyati mavjud.

Shundan kelib chiqib, taqdimotda tizimda korruptsiyaviy xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va xodimlarning kasbiy mas'uliyatini yuksaltirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Taklif etilayotgan yangi tizim sud faoliyatini turli xavflardan asrovchi kuchli himoya mexanizmi vazifasini o'taydi.

ODIL SUDLOV: SHAFFOFLIK VA HALOLLIK KAFOLATI

Ushbu maqsad yo'lidagi eng muhim qadamlardan biri Oliy sud tarkibida to'g'ridan to'g'ri Oliy sud raisiga bo'yusuvchi, mustaqil Komplyens nazorati xizmatining tashkil etilishidir. Bu tizim hududlardagi barcha sudlarda qonun ustuvorligi va kasb etikasi talablariga rioya etilishini ta'minlovchi komplyens inspektorlari faoliyatini yo'lga qo'yishni nazarda tutadi.

Agar ilgari korruptsiyaviy holatlarga sodir bo'lgandan keyin huquqiy baho berilgan bo'lsa, endi tizim butkul o'zgaradi. Yangi xizmat xavf-xatarlarni hali sodir bo'lmagan turib aniqlaydi, baholaydi va ularning kelib chiqish sabablarini barvaqt bartaraf etadi. Bu esa halol mehnat qilayotgan xodimlar uchun kasbiy himoyani ta'minlab, qonun buzilishi holatlariga murosasiz muhit yaratadi.

Shu bilan birga, sudlar apparatida xavfi yuqori lavozimlar bo'yxati aniq tasdiqlanib, inson omili yuqori bo'lgan barcha jarayon to'liq raqamlashtiriladi. Bu choralar orqali subyektiv yondashuvlar va turli shubhali holatlarga butunlay chek qo'yiladi.

“Sud protsessi yaxlit zanjir, unda nafaqat sudyalor, balki hujjatlarini tayyorlash va ijro etish jarayonida qatnashadigan qariyb 4800 sud apparati xodimining ham mas'uliyati mavjud.

Bugungi islohotlar doirasida sud tizimiga eng ilg'or raqamli texnologiyalar faol olib kirilmoqda. Xususan, sudyalor va sud apparati xodimlari uchun manfaatlar to'qnashuvi, daromad va mol-mulk deklaratsiyalarini taqdim etish hamda tahlil qilishning avtomatlashtirilgan elektron tizimi joriy etilmoqda. Ushbu shaffoflik xodimlarning jamiyat oldidagi mas'uliyatini yanada oshiradi.

Yana bir muhim yangilik — sud ishlarini avtomatik taqsimlash dasturining takomillashtirilishidir. Ishlarning qaysi sudyaga tushishi hamda qayta taqsimlanish mezonlarining aniq va shaffof bo'lishi protsessual ishtirokchilarda hech qanday shubha yoki e'tiroz qoldirmaydi. Korruptsiya va intizom buzilishi haqida xabar bergan xodimlarni himoya qilish tizimi hamda fuqarolar uchun xavfsiz aloqa kanallarining yaratilishi esa ichki nazoratni yangi bosqichga olib chiqadi.

Shuningdek, sud apparatiga ishga qabul qilish tizimi ham tubdan yangilanmoqda. Bundan buyon bo'sh lavozimlarga kadrlar faqat ochiq tanlov va meritokratiya, ya'ni shaxsning bilim, tajriba va iqtidoriga qarab baholanishi tamoyili asosida qabul qilinadi. Har bir nomzodning ma'naviy-axloqiy sifatlati va korruptsiyaga qarshi barqarorligi jiddiy tekshiriladi. Xodimlar uchun tadbirkorlik bilan shug'ullanish va chet elda hisobvaraq ochish kabi cheklavlarning joriy etilishi esa xolislikni ta'minlashning muhim shartidir.

Taqdimotda sud apparati xodimlari uchun ixtisoslashgan xizmat kiyimi joriy etilishi ham alohida qayd etildi. Libos shunchaki mato emas, balki mas'uliyat timsoli. Shu libosni kiygan har bir xodim o'z qaddini baland tutish bilan birga davlat nomidan ish ko'rayotgani, uning har bir harakati, hatto gapirish madaniyati ham etika



Davlat xizmati tizimi transformatsiyasi faqat tashkiliy yoki ma’muriy islohot emas, balki davlatning jamiyat oldidagi vazifalari va mas’uliyatiga bo’lgan yondashuvning chuqur o’zgarishidir.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

23-iyun – Davlat xizmati kuni

NATIJA UCHUN ISHLASH – DAVLAT XIZMATINING BOSH MEZONI



Sevara ZOKIROVA,
yuridik fanlar bo’yicha
falsafa doktori

Boshlanishi 1-betda

XXI asrda davlat xizmati institutini takomillashtirish, ochiqlik, professionalligi va samaradorligini oshirishga har qanday mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Zero, kuchli davlat xizmati samarali davlat boshqaruvi, barqaror taraqqiyot va aholi farovonligining eng muhim kafolatlaridan biridir.

Xalq ishonchi ulkan mas’uliyat

O’zbekistonda so’nggi yillarda davlat boshqaruvi falsafasida tub sifat o’zgarishlari yuz berdi. Davlat va jamiyat munosabatlariga bo’lgan yondashuv qayta ko’rib chiqilib, boshqaruvning an’anaviy “davlat — jamiyat — inson” modeli o’rniga inson manfaatlarini ustuvor qo’yadigan “inson — jamiyat —

oshirish, natijaga yo’naltirilgan boshqaruv tamoyillarini joriy etish va inson resurslarini rivojlantirish bo’yicha institutsional islohotlar amalga oshirildi. Xususan, davlat organlarida boshqaruv sifatini yangi bosqichga olib chiqish, hududlarda mavjud imkoniyatlarni aniqlash va ulardan samarali foydalanish, davlat tashkilotlarida inson kapitalini boshqarish tizimini takomillashtirish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Boshqaruv samaradorligi agentligi tashkil etildi.

Agentlik zimmasiga davlat organlari va tashkilotlarida xodimlarni boshqarish, inson resurslarini rivojlantirish hamda boshqaruv samaradorligini oshirish sohasida yagona davlat siyosatini yuritish vazifasi yuklatildi. Bu esa davlat xizmati tizimida inson omilining strategik ahamiyati ortib borayotgani, zamonaviy davlat boshqaruvi esa, avvalo, malakali va professional kadrlarga tayanishini anglatadi.

Shunday qilib, davlat xizmati tizimi transformatsiyasi faqat tashkiliy yoki ma’muriy islohot emas, balki davlatning jamiyat oldidagi vazifalari va mas’uliyatiga bo’lgan yondashuvning chuqur o’zgarishidir. Bu jarayonda davlat xizmatchisi yangi davlatchilik modelida islohotlarning ijrochisi emas, uning faol yaratuvchisi va harakatlantiruvchi kuchiga aylanmoqda.

Taraqqiyotning strategik resursi

Har yili 23-iyun kuni dunyo hamjamiyati BMT tomonidan belgilangan Davlat xizmati kunini nishonlaydi. Mazkur sana davlat xizmati institutining jamiyat taraqqiyotidagi o’rni va ahamiyatini yana bir bor anglash, davlat boshqaruvida samaradorlik, ochiqlik va mas’uliyat tamoyillarini mustahkamlash, shuningdek, fuqarolar manfaatlariga xizmat qilayotgan davlat xizmatchilari mehnatini e’tirof etishga qaratilgan.



davlat” tamoyili asosidagi yangi paradigma shakllana boshladi.

Ilgari davlat asosiy subyekt sifatida qaralib, fuqarolar ko’proq davlat siyosati amalga oshiriladigan obyekt sifatida tasavvur etilgan bo’lsa, bugungi kunda inson, uning huquq va erkinliklari, munosib hayot kechirishiga intilishi davlat siyosatining markaziy mezoniga aylandi. Ya’ni davlatning maqsadi faqat boshqarish emas, balki inson uchun qulay shart-sharoit yaratish, uning salohiyatini ro’yobga chiqarish va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan samarali institutlarni shakllantirishdan iborat ekani e’tirof etildi.

Bunday yangi yondashuv, avvalo, davlat xizmati tizimi oldiga yangi talablarni qo’ydi. Chunki inson qadriini ulug’lashga qaratilgan davlat siyosati uni amalga oshiradigan davlat xizmatchilari dunyoqarashi, kasbiy tay-yorgarligi, axloqiy mas’uliyati va xizmat madaniyati bilan bevosita bog’liqdir. Endi davlat xizmatchisi ma’muriy vakolat egasi emas, balki fuqarolarning huquq va manfaatlarini ta’minlovchi, jamiyat ishonchini oqlovchi professional boshqaruvchi sifatida belgilandi.

O’zbekistonda kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini modernizatsiyalash davlat boshqaruvi islohotlarining muhim yo’nalishlaridan biriga aylandi. Davlat organlariga zamonaviy bilim va ko’nikmalarga ega, strategik fikrlaydigan, tashabbuskor, mas’uliyatli hamda xalq manfaatlariga sadoqat bilan xizmat qiladigan yangi avlod kadrlarini jalb etish masalasi ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek: “Bugun hayotning o’zi bizdan professional, tezkor va samarali davlat xizmati tizimini shakllantirish, yangicha fikrlaydigan, tashabbuskor, el-yurtga sadoqatli kadrlarga keng yo’l ochish bo’yicha samarali tizim ishlab chiqishni talab etmoqda”. Mazkur strategik vazifalardan kelib chiqib, davlat xizmatida boshqaruv samaradorligini



ko’lamli ishlar bajariladi. “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” tamoyili yangi boshqaruv falsafasining asosiy g’oyalardan biriga aylandi.

Ushbu tamoyil davlat xizmatining mazmun-mohiyatini o’zgartirdi: davlat lavozimini endi imtiyoz yoki maqom emas, katta mas’uliyat va jamiyat oldidagi xizmat vazifasi sifatida talqin etilmoqda. Davlat xizmatchisining qadri xalq ishonchini qozona olishi, muammolarga yechim topishi va amaliy natijalar yaratga olishi bilan belgilanmoqda.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, boshqaruv sohasida aholi uchun samarali tizim yaratmasdan turib, hech bir yo’nalishda kutilgan natijaga erishib bo’lmaydi. Chunki fuqarolar davlat faoliyatini qabul qilingan qaror yoki dasturlar orqali emas, balki o’z hayotida sezayotgan real o’zgarishlar orqali baholaydi. Shu bois, har bir davlat xizmatchisi o’z faoliyatining asosiy mezoni sifatida inson manfaat, xalq roziligi va aniq natijani ustuvor vazifa sifatida belgilashi zarur.

Yangi davr davlat xizmatchisi islohotlarning bevosita ishtirokchisi, davlat va jamiyat o’rtasidagi ishonch ko’prigi hamda mamlakat taraqqiyotini ta’minlovchi strategik resursdir.

Ochiq raqobat va adolat tamoyillari

Yangi O’zbekistonda davlat boshqaruvi falsafasi o’zgarishi, avvalo, davlat xizmati tizimida chuqur institutsional islohotlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga keltirdi. Chunki inson manfaatlarini ustuvor qo’yadigan, fuqarolarga xizmat qilishni bosh maqsad deb belgilaydigan davlat modeli, eng avvalo, yangi talablarga javob bera oladigan professional davlat xizmatchilari korpusini shakllantirishni taqozo etadi.

Shu nuqtayi nazardan, davlat fuqarolik xizmati huquqiy, institutsional, tashkiliy va sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarildi. Davlat xizmati sohasida yagona huquqiy asoslarni shakllantirish, ochiqlik va adolat tamoyillarini ta’minlash, kadrlarni tanlashda meritokratiya, ya’ni bilim, qobiliyat va kasbiy salohiyatga asoslangan yondashuvni joriy etish bo’yicha tizimli chora-tadbirlar ko’rildi.

Jumladan, “Davlat fuqarolik xizmati to’g’risida”gi qonunning qabul qilinishi davlat xizmatining huquqiy maqomini belgilash, xizmatchilarning huquq va majburiyatlarini aniqlash, faoliyatini baholash hamda professional rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish uchun muhim huquqiy poystdevor yaratdi. Shuningdek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada fuqarolarning davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa ega ekani mustahkamlanib, davlat xizmatini o’tash bilan bog’liq cheklavlari faqat qonun asosida belgilanishi kafolatlandi.

Bu o’zgarishlar davlat xizmatiga qabul qilishda avvalgi ma’muriy yondashuvlardan voz kechib, ochiq raqobat va adolat tamoyillariga asoslangan yangi tizimni shakllantirdi. Bugun davlat xizmatiga kirish mezoni nomzodning bilim darajasi, kasbiy tayyorgarligi, intellektual salohiyati va boshqaruv qobiliyati bilan belgilanmoqda.

Vakant lavozimlarning yagona ochiq portali orqali o’tkazilayotgan tanlovlar davlat xizmati eshiklarini keng jamoatchilik uchun ochdi. Natijada minglab fuqarolar, ayniqsa, yoshlar, xotin-qizlar va malakali mutaxassislar o’z imkoniyatini namoyon etish, davlat boshqaruvi tizimida o’z o’rnini topish imkoniyatiga ega bo’ldi. Bu esa davlat xizmatini jamiyatning salohiyatli va munosib vakillari uchun ochiq, raqobatbardosh kasbiy maydonga aylantirmoqda.

Misol uchun, birgina 2026-yilning yanvar-may oylarida vacancy.gov.uz platformasi orqali 8598 malakali xodim ishga qabul qilindi, shundan 2865 nafari xotin-qiz, 5733 nafari erkak, 3456 nafarini yoshlar tashkil qildi. Tanlov g’oliblarining 283 nafari davlat fuqarolik xizmatiga birinchi marta ishga qabul qilingan. Zamonaviy davlat boshqaruvi uchun nafaqat kadrlarni tanlash, balki ularni maqsadli rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda davlat xizmatchilari malakasini oshirish, milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish, “Rahbar ayollar maktabi”, “Hokimlikka tayyorlash maktabi” kabi loyihalar orqali yangi avlod rahbar kadrlarini tayyorlash tizimi yo’lga qo’yildi. Jumladan, davlat xizmatchilari malakasini oshirish, bilim va kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida agentlik tomonidan 2026-yilda turli sohalarga oid jami 45 ta an’anaviy malaka oshirish kursi, 9 ta onlayn kurs va 6 ta stajirovka tashkil etildi.

Aholi uchun qulaylik – bugunning asosiy talabi

Davlat xizmati tizimidagi eng muhim o’zgarishlardan biri boshqaruv faoliyatini natija asosida baholash tizimi joriy etilishi bo’ldi. Ilgari davlat idoralari faoliyati ko’proq bajarilgan vazifa va tayyorlangan hisobotlar orqali baholangan bo’lsa, bugungi yondashuvda asosiy e’tibor real natija, aholi uchun yaratilgan qulaylik va xizmatlar sifatiga qaratilmoqda.

Bu tamoyil “Sifatli davlat boshqaruvi” dasturi doirasida amalga oshirilgan ishlar

xizmatchilarini o’qitish, malakasini oshirish va professional rivojlanishini ta’minlash davlat siyosati darajasiga ko’tarildi.


So’nggi yillarda davlat xizmatchilarining kasbiy salohiyatini oshirish maqsadida yuzlab malaka oshirish kurslari, amaliy seminarlar, ekspres-treninglar va xorijiy stajirovkalar tashkil etildi. Bu jarayon davlat xizmatchilarini yangi bilimlar, zamonaviy boshqaruv usullari va xalqaro tajribalar bilan ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Davlat xizmatchilari kompetensiyalarini obyektiv baholash maqsadida Rahbar kadrlarni baholash markazi tashkil etildi. Uning asosiy vazifasi davlat xizmatchilarining bilim, ko’nikma va boshqaruv qobiliyatlarini zamonaviy baholash usullari asosida aniqlash, rivojlanish ehtiyojlarini belgilash va shaxsiy kasbiy o’sish trayektoriyalarini shakllantirishdan iborat.

Bugungi kun holatiga 1143 nomzod baholash jarayonlaridan o’tkazilgan hamda 744 nafarining portfoliolari tayyorlanib, kompetensiyalarini rivojlantirish rejalarini ishlab chiqildi.

Xalqaro amaliyotda keng qo’llaniladigan assessment tizimi davlat xizmatida kadrlarni tanlash va rivojlantirishning muhim vositalaridan biridir. Ushbu usul orqali xodimning kuchli jihatlari, rivojlanish nuqtalari va muayyan lavozimga mosligi obyektiv mezonlar asosida baholanadi. Natijada kadrlar bilan ishlashda subyektiv yondashuvlar kamayib, professionallik va adolat tamoyillari kuchayadi.

Bugun davlat xizmati tizimida kompetensiyalar modeli asosida kadrlarni baholash, ularning portfoliosini shakllantirish



misolida yaqqol namoyon bo’ldi. Mazkur dastur doirasida respublika miqyosidagi davlat organlari faoliyati xalqaro ekspertlar va mahalliy mutaxassislar tomonidan kompleks baholandi. Bunda boshqaruv samaradorligi, raqamlashtirish darajasi, davlat xizmatlari sifati, resurslardan oqilona foydalanish va fuqarolar uchun yaratilgan imkoniyatlar asosiy mezon sifatida belgilandi.

Ushbu yondashuvning mohiyati shundaki, davlat organi va mansabdor shaxs faoliyati uning qancha qaror qabul qilgani yoki qancha yig’ilish o’tkazgani bilan emas, odamlar hayotida qanday ijobiy o’zgarishlarni ta’minlagani bilan baholanishi kerak.

Inson kapitali va kompetensiyalar

Davlat xizmati samaradorligi, avvalo, unda faoliyat yuritayotgan kadrlarning bilim va salohiyatiga bog’liq. Shu sababli davlat

va individual rivojlanish rejalarini ishlab chiqish amaliyoti joriy etilmoqda. Bu esa davlat xizmatini tasodifiy emas, aniq mezon va strategik rejalashtirish asosida rivojlantirish imkonini bermoqda.

KPI — baholashda samaradorlikni ta’minlaydi

Zamonaviy davlat boshqaruvida eng muhim yondashuvlardan biri xodimlar faoliyatini eng muhim samaradorlik ko’rsatkichlari (KPI — Key Performance Indicators) asosida baholashdir.

KPI tizimi davlat xizmatchisi faoliyatini “qancha ish qilindi?” degan savoldan “qanday natijaga erishildi?” degan yondashuvga o’tkazadi. Bu mexanizm orqali har bir xodimning tashkilot maqsadlariga qo’shayotgan hisssasi aniqlanadi, mas’uliyat va shaxsiy javobgarlik kuchayadi.

Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yilida ustuvor yo’nalishlar bo’yicha

islohotlar dasturi hamda “O’zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturida ham davlat organlari faoliyatida natijadorlikni ta’minlash maqsadida aniq ko’rsatkichlar asosida baholash tizimi joriy etilishi belgilandi.

Shu asosda davlat xizmatchilari faoliyatini elektron baholash imkonini beruvchi samaradorlik.uz platformasi ishga tushirildi. Ushbu tizim davlat xizmatida shaffoflikni oshirish, natijalarni raqamli asosda baholash va boshqaruv qarorlarini aniq ma’lumotlarga tayangan holda qabul qilish imkonini bermoqda.

Bugungi kunda davlat xizmatchisi faoliyatining haqiqiy mezoni xalqqa qanchalik foyda keltirayotgani, fuqarolar hayotida qanday ijobiy o’zgarishlar yaratayotganidadir.

2026-yilning birinchi choragi yakunlariga ko’ra, 111 ta respublika ijro organi va xo’jalik birlashmasidagi 410 rahbar va ularning o’rinbosarlari 3 mingga yaqin samaradorlik ko’rsatkichi asosida, shuningdek, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlaridan hudud darajasida 102 nafar hamda tuman (shahar) darajasida 1140 nafar hokim o’rinbosari faoliyati 12 mingdan ortiq samaradorlik ko’rsatkichi asosida onlayn platforma orqali baholandi.

Davlat xizmati tizimida shakllanayotgan yangi yondashuvning asosiy mazmuni professionalizm, meritokratiya, natijadorlik va xalqqa xizmat qilish tamoyillariga tayangan zamonaviy davlat xizmatini barpo etishdan iborat.

Albatta, islohotlarga qaramay, davlat xizmati tizimi oldida hali muhim vazifalar mavjud. Jumladan, byurokratik to’siqslarni yanada qisqartirish, korrupsiyaning oldini olish, hududlarda malakali kadrlar zaxirasini kengaytirish, davlat xizmati jozibadorligini oshirish va boshqaruvga yangi texnologiyalarni chuqur joriy etish dolzarb masalalar bo’lib qolmoqda.

Aynan shu vazifalarni hal etish maqsadida davlat fuqarolik xizmatini uzoq muddatli rivojlantirishga qaratilgan Davlat fuqarolik xizmatini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi qabul qilindi. Mazkur strategiya davlat xizmatini yanada professional, ochiq va samarali tizimga aylantirishning uzoq muddatli yo’nalishlarini belgilab beradi.

Hozirgi davr davlat xizmatchilaridan muttasil o’qish va o’z ustida ishlashni talab qilmoqda. Sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar tahlili, raqamli boshqaruv, loyihaviy menejment va strategik rejalashtirish kabi ko’nikmalar endi davlat boshqaruvining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, davlat xizmatchisi doimiy rivojlanish yo’lini tanlashi lozim. Chunki zamon o’zgarmogda, jamiyat ehtiyojlari yangilanmoqda, fuqarolarning davlatdan kutayotgan talabi ortib bormoqda.

Shu ma’noda, bugungi davlat xizmatchisi: — xalq bilan ochiq muloqot qila oladigan; — raqamli texnologiyalardan samarali foydalanadigan; — tezkor va adolatli qaror qabul qiladigan; — korrupsiyaga mutlaqo murosasiz bo’lgan; — natija uchun shaxsan javob beradigan shaxs bo’lishi shart.

Chunki davlat xizmati imtiyoz emas, nafaqat bugungi kun, balki davlatning kelajagi uchun ham yuksak mas’uliyatdir.

Bugungi kunda davlat xizmati mamlakat taraqqiyotini belgilab beruvchi muhim strategik institut sifatida namoyon bo’lmoqda. Sababi, davlat siyosati va islohotlarning haqiqiy natijasi, avvalo, ularni hayotga tabiiy etayotgan davlat xizmatchilarning bilimi, salohiyati, mas’uliyati va fidoyiligi bog’liq.

Yangi O’zbekistondagi davlat boshqaruvi islohotlarining bosh maqsadi xalqqa xizmat qiladigan, ochiq, samarali va professional davlat xizmatini shakllantirishdan iborat. Bu jarayonda davlat xizmatchisining roli ham tubdan o’zgarmogda: u endi faqat ma’muriy vazifalarni bajaruvchi xodim emas, balki inson qadriini ta’minlash, fuqarolarning ishonchini mustahkamlash va islohotlarning amaliy natijasini ta’minlashga mas’ul bo’lgan muhim ijtimoiy institut vakiliga aylanmoqda.

Shuni anglash zarurki, davlat xizmatining asosiy mezoni aholiga yaqinlik, inson manfaatlariga sadoqat va aniq natijadir. Davlat idoralari faoliyatida “jarayon uchun emas, natija uchun” ishlash tamoyili qaror topishi boshqaruv samaradorligini oshirish, byurokratik yondashuvlarni kamaytirish va davlatga ishonchni mustahkamlashning muhim omili hisoblanadi.

Kelgusida ham davlat xizmati tizimini takomillashtirish, uni zamonaviy bilim va ko’nikmalarga ega, innovatsion fikrlaydigan, halol va tashabbuskor kadrlar bilan boyitish mamlakat taraqqiyotining ustuvor yo’nalishlaridan biri bo’lib qoladi. Zero, kuchli davlat xizmati kuchli boshqaruv, barqaror taraqqiyot va xalq farovonligining mustahkam kafolatidir.

Nuqtayi nazar

kelishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarning oldini olishda muhim o'rin tutmoqda.

Andijon davlat universitetidagi tizimli ishlar
 huquqbuzarliklarning oldini olish qat'iy nazar
 qo'y joza bilan emas, balki mehr, e'tibor, ishonch
 va manzilli yondashuv orqali samara berishini
 ko'rsatmoqda. Har bir talaba taqdiriga mas'uliyat
 bilan yondashish, uning muammolarini o'z
 vaqtida eshitish va huquqiy ongini yuksaltirishga
 qaratilgan mazkur tizim kelajakda ham ijobiy
 natijalar berishda davom etadi. Zero, huquqiy
 madaniyati yuksak, qonunga hurmat ruhida
 tarbiyalangan yoshlar yangi O'zbekistonning
 amiyatlashgan tayanchi, mamolakat taraqqiyoti
 va jamiat barqarorligining ishonchli kafolatidir.

G'olib ABDUSALOMOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Mulohaza

E'TIBORSIZ BO'LISHGA HAQQIMIZ YO'Q



Ulamolar farosatli odam bir kovakdan chiqqan ilonga o'zini ikki marta chaqtirmasligini aytadilar. Aqlu hushi, farosati, mas'uliyati, onalik, avollik fazilatidan mosuvo bo'lmagan har qanday

Ma'lumotlarga ko'ra, haydovchiga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilgan, xususi bog'cha

Maktabgacha ta'lim sohasida na tajribam bor, na mutaxassisman. Ammo ona, buni sifatida ko'nglidan bir fikr o'tdi. Biz axborot, texnika va kompyuter rivojlangan asrda yashayapmiz. Shunday ekan, bog'chani ta'biyallannuvchilari va maktablarning boshlang'ich sinf o'quvchilari bazasini tuzib, ularning ertalab, tushda, kechqurun qayerda ekani, nima bilan shug'ullanayotgani haqida ma'lumot beruvchi dasturlar yaratish va bog'chalarda, maktablarda joriy etish vaqtini yetdi, nazarimda. Shunda yuqoridagi kabi loyihalarning oldi olindi, ona-onalar uyida bexavotir o'tiradi deb o'ylayman.

Shu bo'lsa, ayni vaqtda viloyatning barcha shahar va tumanlarida sayyohlar uchun qulay muhit va zarur infratuzilma barpo etilmoqda. Huddud markazlarida turizm ko'chalari ochilib, qator istiqbolli loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, G'ozg'on shahrida qurilgan turizm ko'chasi shaharning o'ziga xos milliy qiyofasini aks ettirgan. U mahalliy tabiiy mahsulot — marmarotashlar bilan bezatilgan. Ko'cha to'la asfaltlanib, pyodalar va transport harakati uchun qulay sharoit yaratilgan. Shuningdek, ushbu hududda zamonaviy savdo do'konlari tashkil etilib, aholi va shahar mehmndlari uchun xizmat ko'rsatish sifati yanada oshdi. Turizm ko'chasidagi manzilgohlardan biri Shohimardon ziyoratgohiga tutash bo'lib, bu maskanda ham katta bunyodkorlik ishlari qilinmoqda.

Hayotiy tashabbuslar qanotida

OLIS QISHLOQLAR RIVOJIDAGI ZAMONAVIY MODEL

TURIZMDAGI IMKONIYATLAR IQTISODIY BARQARORLIKKA XIZMAT QILMOQDA

dollardan oshdi. Ayniqsa, Germaniya, Italiya, Fransiya va Xitoydan kelayotgan sayohatlar oqimi sezilarli darajada ko'paydi. "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil", "Manguberdi Vatanga sayohat", "Moziyga sayohat" kabi dasturlar doirasida 873 mingdan ziyod yurtdoshimiz uchun sayohatlar uyushtirildi. Viloyatda turizm yo'nalishlarini yanada kengaytirish maqsadida Chashma ziyoratgohi, Imom Buxoriy majmuasi va Yetti pri ziyoratgohlarini bog'lovchi turizm halqasi ishlab chiqildi. Ushbu yo'nalishga 18

6

MA’NAVIYAT

“Temur tuzuklari” – milliy davlatchiligimiz dasturi





BEBAHO VA ESKIRMAS DASTURULAMAL

Amir Temurning yurt obodligi va farovonligi haqida qarashlari

Har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqohlar qurishni, musofir yo’lovchilar uchun yo’l ustiga rabotlar bino qilishni, daryolar ustiga ko’priklar qurishni buyurdim.

Sarmoyasi qo’lidan ketib qolgan savdogarga o’z sarmoyasini qaytadan tiklab olishi uchun xazinadan yetarli miqdorda oltin berilsin. Dehqonlar va raiyatdan qaysi birining dehqonchilik qilishga qurbi yetmay qolgan bo’lsa, unga ekin-tikin uchun zarur urug’ va asbob tayyorlab berilsin. Agar fuqarodan birining uy-imorati buzilib, tuzatishga qurbi yetmasa, kerakli uskunalarni yetkazib, unga yordam berilsin.

Buyurdimki, har mamlakatning gadolariga vazifa yuklab ish bersinlar, toki shu yo’l bilan gadolik rasmi yo’qotilsin.

Avliyolar, din peshvolarining mozorlari va maqbaralariga vaqfdan mablag’ ajratsinlar. U yerlarni gilam, taom va chiroq bilan ta’minlasinlar.

Har bir mamlakat fath etilgach, u yerning gadolarini to’plab, kundalik yemish-ichmishlarini berib, ularga biron vazifa belgilasinlar. Hamda barchasin tamg’olasinlar, toki boshqa gadolik qilmasinlar. Agar tamg’odan keyin ham gadolik qilgudek bo’lsalar, ularni uzoq mamlakatlarga sotib yuborsinlar yoki haydasinlar. Shundagina gado zoti mamlakatda yo’qoladi.

Kimki biron sahroni obod qilsa yoki koriz qursa, yo biron bog’ ko’kartirsa yoxud xarob bo’lib yotgan biron yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, uchinchi yili (esa oliq-soliq) qonun-qoidaga muvofiq xiroj yig’ilsin.

Xarob bo’lib yotgan yerlar egasiz bo’lsa, xolisa tarafidan obod qilinsin. Agar egasi bo’lsayu, (lekin) obod qilishga qurbi yetmasa, unga turli asboblari va kerakli narsalar bersinlar, toki o’z yerini obod qilib olsin.

Xarob bo’lib yotgan yerlarda korizlar qursinlar, buzilgan ko’priklarni tuzatsinlar, ariqlar va daryolar ustiga (yangi) ko’priklar qursinlar, yo’l ustida har manzilgohga rabotlar qursinlar. Yo’llarga kuzatuvchi va soqchilar qo’ysinlar, har bir rabotga bir nechta odamni joylashtirsinlarki, yo’llarni kuzatish va saqlash ishlari shularga tegishli bo’lsin. Yo’lovchilar mollarini g’aflet bosib, o’g’irlatib qo’ymasliklarining vazifasi ham o’shalarning zimmasida bo’lsin.

Katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar, faqiru miskinlarga langarxona solsinlar, kasallar uchun shifoxona qurdirsinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasinlar. Har bir shaharda dor ul-amorat va dor ul-adolat qursinlar. Raiyatu ziroatni qo’riqlovchi qo’rchilar (ham) tayinlasinlar.

Adlu ehson bilan jahon gulshani obod bo’ladi.

Qudratimizga shak-shubhangiz bo’lsa, biz qurdirgan binolarga boqing.

Eng baland minora ham yerdan ko’tarilgay.

Yaxshi odam yurt tuzar, yomon odam yurt buzar.

Hamishalig’ ta’kid etur edim: xon bo’lsang-da bog’ yarat, gadoy bo’lsang-da bog’ yarat — bir kunmas bir kun mevasini tatirsan...

Bo’riboy Ahmedovning “Amir Temur o’g’itlari” kitobidan.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyati” DM

MUASSIS: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir: Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-646. 30166 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshmaxonasida chop etildi. Boshmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Sardor Tolliboyev Musahhih: Akbar Qarshiyev Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e‘lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz; (71) 233-47-05

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz[yuz.uznews](https://www.facebook.com/yuz.uznews)[yuz_official](https://www.telegram.me/yuz_official)[yuz.uz_news](https://www.instagram.com/yuz.uz_news)[yuz.uz_news](https://www.youtube.com/yuz.uz_news)



MUQADDAS SAFAR

Boshlanishi 1-betda

Ha, bu juda qutlug’ safar bo’ldi! Tashabbus O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga tegishlidir. Bu quruq so‘z emas, do‘stlar, elga, xalqqa xizmat qilish, yurtni o‘ylash, insonlarni ruhlantirishning yuksak namunasi degan bo‘lardim. Buning ustiga, qutlug‘ safarimiz Qurbon hayiti munosabati bilan xayriya sifatida davlatimiz rahbari hisobidan qoplanganini eshitgach, Prezidentimizga hurmatimiz yanada oshib ketdi!

Odami ersang, demagil odami, Onikim yo‘q, xalq g‘amidin g‘ami, deb yozgan edi Hazrat Alisher Navoiy. O‘z vaqtida buyuk bobomiz ham Hirot xalqining bir yillik xirojini to‘lab, xalqning duosini olgan ekan.

Rivoyatlar diyori

Safarga kuzatish jarayoni bayramga aylanib ketdi. “Prezident hojilari”ning kayfiyati a’lo edi. Samolyotga o‘tirar ekanman, yana Alisher Navoiyni esladim. Ulug‘ shoir haj safariga ikki-uch bor taraddud ko‘rgan, lekin mamlakatdagi notinch sharoit unga imkon bermagan. Kamina ulug‘ shoirimizga bag‘ishlangan “Mangu quyosh” tarixiy romanimda shu haqda mulohaza yuritgan edim. Mavzuga tegishli bo‘lgani sababli romandan kichik parcha keltirishga jur‘at etdim:

“...Yoshlik zamonlaridan boshlab Navoiy ko‘nglida islom hajini ado etish niyati, xayr ul-anom alayhis salavotu vasallamning muborak ravzalarini ziyorat qilish orzusi oromini o‘g‘irlardi. Hayhot, Yo Rab, Yasribu Bathoga bormak qachon nasib aylar ekan, qachon Makkai mukarramaga borg‘aymen, Masjid ul-haramda ibodat qilg‘aymen, Zamzam bulog‘i bo‘yida



Muhammad ALI, O‘zbekiston xalq yozuvchisi

622-yili Muhammad alayhissalom Yasribga hijrat qilganlar. Kelgach, shaharda bir uy qurdilar, uning yonida masjid tikladilar. “Yasrib” nomi Qur’oni karimning “Al-Ahzob” surasida keltirilgan. O’sha masjid bugun ming-ming odamni sig‘dira oladigan Masjid un-nabaviydir.

Ibodatlarni Masjid un-nabaviyda va payg‘ambarimiz ravzalarida ado etdik. Masjidning ichi nihoyatda katta va kengligini ko‘rib, yoqa ushladim. Shunchalar mahobatli, nazarimda, butun olam masjidga aylangan edi.

Payg‘ambarimiz Makkai mukarramadan Madinaga hijrat qilib yo‘lga chiqqanlarida ul zot mingan tuya bir yerda cho‘kadi. Rasululloh “Tuya ma‘murdir”, deya qay yerda to‘xtashni tuyaning o‘ziga qo‘yganlar. Xuddi shu yerda islom olamida



birinchi masjid sanalgan Qubo masjidi bunyod etilgan. Payg‘ambarimiz shanba kunlari masjidga goh piyoda, goh ulovda kelib, ikki rakat namoz o‘qir ekanlar.

Madina shahri atrofidagi muqaddas joylarga ham bordik. Muhim yang bo‘lgan Uhud tog‘i, u yerdagi qabristonni ziyorat qildik. Payg‘ambarimizning “Bu Uhuddir. U bizni yaxshi ko‘radigan, biz ham uni yaxshi ko‘radigan tog‘dir” degan so‘zlari mashhur. Yana, Madinaning xurmozorlari juda ajoyib, serfayz.

Makkai mukarramada

Islom olamining markazi — Makka shahri ko‘z oldimizda namoyon bo‘ldi. Uzoqda Masjid ul-haram yonidagi minorali soat ko‘zga chalindi. Avtobusimiz yetib kelganda vaqt peshindan og‘gan edi.

Bizni mehmonxona oldida muftiy, shayx Nuriddin Xoliqnazar boshliq bir guruh vatandoshlar kutib oldi. Hamma xursand, shukrona tuyg‘usi ko‘ngillarni chulg‘agan.